

O'zbekiston Respublikasi
yalpi hududiy mahsuloti¹
2025- yil yanvar-sentabr oylari uchun²

- I. Yalpi hududiy mahsulot
- II. Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi
- III. Aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot
- IV. Kichik tadbirkorlik (biznes)ning YAIM (YAHM)dagi ulushi
- V. Izohlar
- VI. Havolalar

I. Yalpi hududiy mahsulot

Statistika dasturiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi tomonidan 2025- yil yanvar-sentabr oylari uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (YAHM)ni dastlabki baholash ishlari amalga oshirildi.

YAIM (YAHM) hajmi va o'sish sur'atlari, yanvar-sentabr

	2024- yil		2025- yil	
	Hajmi, mlrd so'm	O'sish sur'atlari, % da	Hajmi, mlrd so'm	O'sish sur'atlari, % da
O'zbekiston Respublikasi ³	1 079 875,5	106,6	1 303 702,1	107,6
Qoraqalpog'iston Respublikasi	32 405,7	106,5	36 814,1	106,1
<i>viloyatlar:</i>				
Andijon	65 606,5	106,3	74 620,5	105,6
Buxoro	51 127,2	105,8	59 871,0	107,4
Jizzax	31 191,7	105,7	37 782,0	108,8
Qashqadaryo	59 230,1	106,2	69 484,6	105,7
Navoiy	84 028,9	107,4	108 396,2	107,9
Namangan	49 734,6	107,3	58 582,9	107,2
Samarqand	75 874,0	106,5	87 483,9	107,7
Surxondaryo	40 968,9	106,2	46 926,5	106,0
Sirdaryo	20 489,7	104,2	24 645,9	108,4
Toshkent	109 297,2	107,7	126 761,2	107,3
Farg'ona	67 260,3	106,9	78 896,7	108,0
Xorazm	38 075,8	106,4	44 142,6	107,3
Toshkent sh.	207 423,3	110,0	252 111,2	111,2

Mavzuga doir havola:

[YAIM \(YAHM\) hajmi \(choraklik\)](#)

[YAIM \(YAHM\) o'sish sur'atlari \(choraklik\)](#)


¹ Ma'lumotlar kuzatilmaydigan iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda shakllantirilgan.

² Dastlabki ma'lumotlar

³ Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida respublika bo'yicha YAIMning shakllanishida Toshkent shahri **19,3 %** ulush bilan eng katta hissa qo'shdi. Toshkent va Navoiy viloyatlari **9,7 %** va **8,3 %** ko'rsatkichlari bilan keyingi o'rinlarni egallab turibdi. Respublika YAIMini shakllantirishda eng kam ulush Sirdaryo viloyati (**1,9 %**), Qoraqalpog'iston Respublikasi (**2,8 %**) va Jizzax viloyatiga (**2,9 %**) to'g'ri kelgan.

2025- yilning yanvar-sentabrida YAIMni shakllantirishda hududlarning ishtiroki




II. Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida YAIM (YAHM)ning tarmoqlar bo'yicha hajmi, mlrd so'm

	YAIM (YAHM)	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar sohasi	Mahsulotlarga sof soliqlar
O'zbekiston Respublikasi	1 303 702,1	211 035,3	323 805,7	92 873,0	612 179,6	63 808,5
Qoraqalpog'iston Respublikasi	36 814,1	6 948,9	7 429,3	3 044,5	18 539,7	851,7
<i>viloyatlar:</i>						
Andijon	74 620,5	19 956,1	21 443,2	4 787,8	26 807,8	1 625,6
Buxoro	59 871,0	19 186,1	12 038,8	5 767,8	21 479,2	1 399,1
Jizzax	37 782,0	14 035,9	7 412,4	2 442,8	13 238,5	652,4
Qashqadaryo	69 484,6	20 560,2	11 844,9	5 292,3	28 842,9	2 944,3
Navoiy	108 396,2	9 900,4	80 142,3	4 305,1	13 158,2	890,2
Namangan	58 582,9	15 640,7	9 934,0	4 644,9	27 371,4	991,9
Samarqand	87 483,9	25 079,9	14 908,2	5 868,6	40 276,8	1 350,4
Surxondaryo	46 926,5	17 459,6	4 392,7	4 555,9	19 839,2	679,1
Sirdaryo	24 645,9	6 937,5	7 424,0	1 826,2	7 803,1	655,1
Toshkent	126 761,2	20 897,2	54 744,1	10 572,6	37 065,9	3 481,4
Farg'ona	78 896,7	20 007,7	15 184,4	5 687,1	36 380,0	1 637,5
Xorazm	44 142,6	14 425,1	6 776,9	3 846,5	18 265,6	828,5
Toshkent sh.	252 111,2	-	60 843,3	26 299,0	144 556,4	20 412,5

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHM tarkibidagi ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Surxondaryo (**37,8 %**) va Jizzax (**37,8 %**) viloyatlarida, sanoatning eng yuqori ulushi Navoiy (**74,5 %**) va Toshkent (**44,4 %**) viloyatlarida, qurilishning eng yuqori ulushi Toshkent shahri (**11,4 %**), Buxoro (**9,9 %**) va Surxondaryo (**9,9 %**) viloyatlarida, xizmatlar sohasining eng yuqori ulushi esa Toshkent shahri (**62,3 %**) va Qoraqalpog'iston Respublikasida (**51,5 %**) kuzatildi.

2025- yilning yanvar-sentabrida YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibi, jamiga nisbatan % da



**2025- yilning yanvar-sentabr oylarida
YAIM (YAHM)ning tarmoqlar bo'yicha o'sish sur'atlari, % da**

	YAIM (YAHM)	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar sohasi	Mahsulotlarga sof soliqlar
O'zbekiston Respublikasi	107,6	103,6	106,8	114,2	108,7	106,9
Qoraqalpog'iston Respublikasi	106,1	103,7	102,6	110,4	107,7	107,4
viloyatlar:						
Andijon	105,6	100,5	107,2	112,7	107,0	107,7
Buxoro	107,4	104,2	107,3	111,2	109,2	109,7
Jizzax	108,8	105,4	114,1	117,3	108,0	114,7
Qashqadaryo	105,7	101,5	107,1	110,5	107,3	107,2
Navoiy	107,9	103,6	108,5	109,1	108,0	108,8
Namangan	107,2	102,6	109,0	115,5	108,0	108,9
Samarqand	107,7	103,8	107,8	122,0	108,2	111,9
Surxondaryo	106,0	101,6	107,9	111,8	108,3	109,8
Sirdaryo	108,4	105,4	108,1	130,7	106,9	110,9
Toshkent	107,3	104,5	106,0	112,6	109,1	109,6
Farg'ona	108,0	106,7	107,3	115,6	107,9	110,2
Xorazm	107,3	104,7	108,8	110,1	108,2	110,4
Toshkent sh.	111,2	-	106,9	120,8	111,1	113,9

III. Aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida Navoiy viloyati O'zbekistonning barcha hududlari orasida aholi jon boshiga YAHM bo'yicha eng yuqori hududga aylandi. Joriy narxlarda uning hajmi **98,4** mln so'mni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich bo'yicha ikkinchi o'rinni aholi jon boshiga to'g'ri keladigan **80,3** mln so'm YAHM bilan Toshkent shahri, uchinchi o'rinni esa **40,5** mln so'm bilan Toshkent viloyati egalladi.


Aholi jon boshiga YAIM (YAHM) hajmi va o'sish sur'atlari, yanvar-sentabr

	2024- yil		2025- yil	
	Hajmi, ming so'm	O'sish sur'atlari, % da	Hajmi, ming so'm	O'sish sur'atlari, % da
O'zbekiston Respublikasi	29 124,8	104,4	34 483,9	105,6
Qoraqalpog'iston Respublikasi	16 101,5	105,0	18 061,1	104,7
viloyatlar:				
Andijon	19 183,3	104,1	21 417,4	103,6
Buxoro	24 864,9	104,0	28 673,2	105,7
Jizzax	20 536,2	103,5	24 395,7	106,7
Qashqadaryo	16 501,1	103,9	18 940,9	103,4
Navoiy	77 613,5	105,5	98 394,4	106,1
Namangan	16 091,7	105,0	18 571,9	105,0
Samarqand	17 886,9	104,3	20 209,9	105,5
Surxondaryo	14 114,8	103,6	15 801,3	103,6
Sirdaryo	22 262,4	102,3	26 310,4	106,6
Toshkent	35 563,2	105,7	40 517,6	105,4
Farg'ona	16 434,8	104,7	18 899,8	105,9
Xorazm	18 959,5	104,4	21 577,8	105,4
Toshkent sh.	67 605,5	107,2	80 331,4	108,7

IV. Kichik tadbirkorlik (biznes)ning YAIM (YAHM)dagi ulushi

2025- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, kichik biznesning respublika YAIMdagi ulushi **51,5** % ni tashkil etdi. Hududlarda kichik biznesning eng katta ulushi Surxondaryo (hududda yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat umumiy hajmining **76,5** % ini tashkil etgan), Namangan (**72,8** %) va Buxoro (**72,2** %) viloyatlarida kuzatildi. Kichik biznesning eng kam ulushi Navoiy viloyati (**22,4** %) va Toshkent shahrida (**50,3** %) qayd etildi.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik (biznes)ning YAIM (YAHM)dagi ulushi



V. Izohlar

Yalpi ichki mahsulot (YAIM) Milliy hisoblar tizimi (MHT)ning asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanib, iqtisodiy rezident-birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini hamda ushbu birliklar tomonidan yakuniy foydalanish uchun ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymatini o'zida aks ettiradi.

Yalpi hududiy mahsulot (YAHM) – hududning rivojlanishini umumlashtiruvchi ko'rsatkich. YAHM iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, YAIMga teng ko'rsatkich hisoblanadi, ya'ni u ushbu hududning rezidentlari bo'lgan iqtisodiy birliklar tomonidan yakuniy foydalanish uchun ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymatini ifodalaydi.

YAHMni hisoblash respublika miqyosida O'zbekiston Respublikasining 14 ta ma'muriy-hududiy tuzilmasi (Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyat va Toshkent shahri) bo'yicha ishlab chiqarish usulida amalga oshiriladi.

YAHMni hisoblashning ishlab chiqarish usuli MHTning ishlab chiqarish hisoblarini tuzish tamoyillariga asoslanadi va YAHMni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy narxlarda yalpi qo'shilgan qiymat va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali baholashni ko'zda tutadi.

YAHM va uning tarkibiy qismlarini hisoblashni uslubiy tamoyillari butun iqtisodiyot bo'yicha YAIMni hisoblash tamoyillari bilan bir xil. Lekin YAIMning ayrim tarkiblari hududlar kesimida shakllantirilmaydi yoki hududlar darajasida ma'lumotlarning yo'qligi va cheklanganligi, shuningdek, ularni hisobga olishni o'ziga xos xususiyatlari sababli hududlar bo'yicha taqsimlanmaydi. Shu sababdan, ular O'zbekiston Respublikasi bo'yicha taqsimlanmagan qism sifatida hisob-kitoblarga kiritiladi.

Aholi jon boshiga YAIM (YAHM) muayyan davrda joriy narxlardagi YAIM (YAHM) hajmini mamlakat (hudud)ning o'rtacha aholisi soniga bo'lish orqali aniqlanadi.

Aholi jon boshiga yalpi ichki (hududiy) mahsulotni shakllantirishda dastlabki ma'lumotlar sifatida yalpi ichki (hududiy) mahsulot hamda demografiya va mehnat statistikasi ma'lumotlaridan foydalaniladi.

VI. Havolalar

[Yalpi hududiy mahsulotni hisoblash bo'yicha uslubiy nizom](#)

[Kuzatilmaydigan iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha uslubiy nizom](#)

[Yalpi hududiy mahsulot](#)

Chop etishga mas'ul:

Makroiqtisodiy indikatorlar va milliy hisoblar boshqarmasi

Manzil: 100170, Toshkent,
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63

Aloqalar: info@stat.uz

Tel.: 71-203-80-00 (1060)

